

74. Yassi sirtlar. Tekislik

Yondosh mavzu:
naturmort.

Yassi shakl,
perimetr.




Sudoku

4		2	3
	3		1
1		3	
3	4		2



1. Bu yerda qanday hajmli jismlar tasvirlangan?



Yassi sirt – bu bukilmagan sirt.

Tekislik – bu turli tomonlarga cheksiz davom etuvchi yassi sirt.




2. Yassi sirt uchburchaklardan hosil qilindi.

a) Turli rangdagi uchburchaklardan nechtadan kerak bo'ladi?


b) Bu sirtga hammasi bo'lib nechta uchburchak kerak bo'lgan?

d) Och qizil uchburchak sariq rangdagi uchburchaklardan nechta ko'p?

e) Bu yerda nechta kvadrat tasvirlangan?



3. Rasmlarda tekislik ko'p hollarda qog'oz varag'i ko'rinishida tasvirlanadi. Ushbu shaklni daftaringizga chizib ko'ring.





4. Naturmortli rasmning bo'yi 3 dm 5 cm, eni esa undan 1 dm qisqa. Rassom rasmni yupqa ramkaga joylashtirishni xohlaydi. Unga uzunligi 1 m bo'lgan reyka yetadimi?



5. Rasm chizish uchun ishlatiladigan bo'rlar solingan kichkina qutichada 36 rangdagi, o'rtacha qutichada esa undan 12 ta ko'p rangdagi bo'rlar bor. Agar katta qutichada kichkina va o'rtacha qutichalarda birgalikda qancha bo'lsa, shuncha bo'r bo'lsa, katta qutichada necha rangdagi bo'r bor?




6. Ifodalarning qiymatlarini kamayish tartibida joylashtiring va rangli bo'rlarda rasm chizish usuli qanday atalishini bilib oling.

A	$250 + 350$	L	$120 + 190$
S	$690 - 120$	E	$900 - 550$
P	$800 - 70$	T	$240 + 180$



7. Hisoblang.

5 yuzl. 4 o'nl. 2 birl. + 3 yuzl. 9 o'nl. 8 birl.
 8 yuzl. 4 o'nl. 3 birl. - 2 yuzl. 8 o'nl. 7 birl.
 4 yuzl. 3 birl. + 2 yuzl. 9 o'nl.
 8 yuzl. - 4 yuzl. 2 o'nl. 3 birl.



8. Aziza gullar aks etgan naturmort chizdi. U 7 ta lolaqizg'aldoq, ulardan 3 ta kam moychechak va 8 ta ko'p atirgul rasmini chizdi. Aziza hammasi bo'lib nechta gul rasmini chizgan?